


KORREKSION - RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR: DARS ISHLANMALARI



Tenglamani qisqartirib, darajalar o'rtasiga o'zlashtirib son yig'itishni, tenglamalarning sharti ko'rib.

$$12 + x = 40$$

$$+ \quad - \quad +$$

$$y - 25 = c$$

$$= \quad = \quad =$$

$$44 + 3 = a$$

"CHIROQNI YOQING" o'yini

1		0	
sin 90°	sin 45°	cos 270°	tg 0°
tg 45°	cos 90°	sin 0°	cos 270°



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

G.U. SOLIYEVA

**KORREKSION-RIVOJLANTIRUVCHI
TEXNOLOGIYALAR: DARS
ISHLANMALARI**

**(Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarga matematika fanini interfaol
o‘rgatish)**

TOSHKENT – 2016

UO‘K: 371.3

KBK 74.3

S-77

S-77 G.U.Soliyeva. Korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar: dars ishlanmalari. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 128 bet.

ISBN 978–9943–11–260–5

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlarning modernizatsiya qilish jarayonida maxsus ta’lim maktablari faoliyati, xususan kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarga matematika fanini o‘rgatishda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur kitob amaliy-nazariy tajribalarni umumlashtirib, interfaol metodlar bo‘yicha dars ishlanmalarini mutaxassislar diqqatiga havola etadi.

Mazkur kitob maxsus maktablardagi o‘quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda matematika bo‘yicha darslarni interfaol metodlar va o‘yin asosida qiziqarli, jonli, tushunarli qilib o‘tishning vosita, shakl, yo‘l va usullarini o‘z mazmuni qamrab oladi hamda sohaga oid dolzarb masalalarni aks ettiradi.

Kitob ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan barcha mutaxassislar, ilmiy xodimlar, jumladan, pedagog-o‘qituvchilar, pedagogika va psixologiya ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan oliy ta’lim muassasalari bakalavriat va magistratura bosqichlari, o‘rta maxsus pedagogik kasb-hunar kollejlari talabalari, inklyuziv ta’lim muassasalarining mutasaddi rahbarlari va xodimlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlari mutasaddi mutaxassislari hamda sohaga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

UO‘K: 371.3

KBK 74.3

Taqrizchilar: **Fozilov J.K.** – 106-zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat direktori, p.f.n.;
Yakubjonova D. – TDPU katta ilmiy hodimi, izlanuvchi;
Ibragimova O.Sh. – 101-kar bolalar maxsus maktab-internati matematika o‘qituvchisi.

Respublika ta’lim markazi qoshidagi maxsus ta’lim yo‘nalishidagi ilmiy metodik Kengashning 2016-yil 27-maydagi 2-sonli yig‘ilish qaroriga asosan nashr etildi.

ISBN 978–9943–11–260–5

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016.

KIRISH

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida mamlakat ta’lim tizimini tubdan isloh etish, umumiy maktab ta’limi bosqichida, shuningdek, maxsus maktablar ta’lim tizimiga eng zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha aniq maqsadli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ta’lim tizimini keng isloh qilish davlat siyosatining bosh yo‘nalishi va maqsadlaridan biriga aylantirildi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun milliy qonunchilik asoslari yaratildi, davlat qonunlari, dasturlari va me‘yoriy hujjatlar qabul qilindi.

«Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi imon-e‘tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma‘naviyatini shakllantirish, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat» ekanligi davlat rahbari tomonidan qayd etildi.¹

Mazkur o‘zgarish va tub islohotlarning maqsadi hamda vazifalari maxsus maktablar ta’lim tizimiga ham tegishli bo‘lib, ularda ham ta’lim jarayoni mazmuni, uning shakli, vositalari va usullarini innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan takomillashtirish, ta’lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish, maxsus maktab ta’limi jarayoniga korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalarni tatbiq etish, ularning mazmuni va mohiyatini belgilash, maxsus ta’lim uchun barcha predmetlar bo‘yicha zarur bo‘lgan interfaol metodlarini ishlab chiqish eng dolzarb vazifalarga aylandi. Shu bilan birga maxsus ta’lim o‘quvchilarda mazkur korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etdi.

Maxsus ta’lim tizimida o‘qituvchi shaxsi, uning kompetensiyasi, o‘qituvchi mahoratiga zamonaviy talablar qo‘yila boshlandi. Mazkur jarayonda pedagoglarning innovatsion pedagogik faoliyatlarini tashkil qilish, ulardan zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash taqozo etildi. Chunki o‘qituvchi shaxsi aynan dars jarayonini tashkil qiluvchi, auditoriyada innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi sanaladi. Binobarin, o‘qituvchi shaxsini innovatsion jarayonlar va yangi pedagogik texnologiyalarga hozirlamasdan turib, maxsus ta’lim tizimida belgilangan tub o‘zgarishlarni amalga oshirib bo‘lmaydi. O‘qituvchi innovatsion pedagogik jarayonni

¹ Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirishdir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 15 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. 2007 yil, 8 dekabr.

tashkil qila olsagina biz yangi mazmundagi zamonaviy talablarga to'liq javob bera oladigan kadrlarga ega bo'lamiz.

Mamlakatimizda innovatsion tafakkur va innovatsion muhitni tashkil qilishda o'qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyati o'quvchilarning ta'lim jarayonidayoq innovatsion faoliyat bilan tanishishlari va ijodiylik asosida ta'lim olishlari uchun keng imkoniyat yaratadi. Muhim bo'lgan talab – maxsus ta'lim tizimi uchun har bir o'qitilayotgan predmet negizida innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil qilishning shakl, vosita, usul va yo'llarini ishlab chiqish va bevosita ta'lim jarayoniga tatbiq etishdan iboratdir.

Mazkur dolzarb vazifaga o'qituvchilarni maxsus va maqsadli ravishda tayyorlash zarur. Shunga ko'ra, maxsus maktab o'qituvchilarining o'zi ham ijodiylik asosida o'z predmetining interfaol imkoniyatlarini qayta ko'rib chiqishi va ularni zamonaviy talablar asosida yangidan ishlab chiqishi taqozo etiladi. Buning uchun har bir dars mazmuni nuqtayi nazaridan interfaol usullar qo'llanilgan dars ishlanmalarini yaratish zarur. Xususan, mazkur talab maxsus maktablar pedagogik faoliyati, shu jumladan matematika o'qituvchilarining pedagogik faoliyatiga ham tegishli bo'lib, matematika fanini o'qitishni maxsus maktablarning o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlari asosida uslubiy jihatdan ishlab chiqilishi taqozo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida innovatsion omil masalasini o'rganish mustaqillik yillarida juda katta qiziqish uyg'otgan ilmiy-nazariy va amaliy muammolardan biri bo'lib, mazkur innovatsion yo'nalishning alohida sohasi korreksion-rivojlantiruvchi pedagogik ta'limda matematika o'qitishning yangi usul, shakl, vosita va yo'llarini ishlab chiqish, matematika o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qilish sanaladi. Mazkur yo'nalishda mamlakatimizda va xorijiy ellarda bir qator tadqiqotlar olib borildi.

Mustaqillik yillarida ta'lim tizimini uzviylik va uzluksizlik asosida tashkil qilish, innovatsion pedagogika tamoyillarini joriy qilish, mazkur jarayonda alohida e'tiborni inklyuziv pedagogika, shu jumladan maxsus ta'lim masalalariga qaratish alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur yo'nalishda I.H. Djurayev, S.T.Turg'unov, J.G'.Yo'ldoshev, Sh.Qurbonov, F.R.Izlikayev, U.I.Inoyatov, U.Sh.Begimqulov, V.Lazerev, J.K.Fozilov, I.Majidov, A.Qo'chqorov, Sh.Q.Mardonov, A.Karimjonov, M.S.Adizov, M.Sharifxo'jayev, S.G'ulomov, N.Jumayev, N.Erkaboyeva, Q.O'rolov, Q.Abdurahmonov, V.Zver'eva, V.I.Zibareva, S.T.Turg'unov, M.Jumaniyozova, R.Sh.Axlitdinov, Sh.M.Zufarov, V.Medinskiy, O.Xomeriki,

P.V.Xudominskiy, T.Teshaboyev kabilarning tadqiqotlarini qayd etish o‘rinlidir.

Rossiya va MHD da ham maxsus ta’lim, shu jumladan kar va zaif etishuvchi o‘quvchilar ta’limi masalalariga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar yaratildi. Ulardan I.A.Denisovaning «Дифференцированный подход в формировании произносительной стороны речи учащихся с нарушениями слуха младшего школьного возраста»², С.N.Silantyevaning «Формирование структурно-семантического анализа предложений у старших дошкольников с общим недоразвитием речи»³, I.A.Grachevaning «Коррекционно - развивающее пространство как оптимальное условие адаптации младших подростков с нарушениями речи при интегрированном обучении»⁴, I.A. Yemel’yanovaning «Педагогическая технология формирования коммуникативных умений и навыков у младших школьников с нарушением интеллекта»⁵, V.V. Kliputenkoning «Формирование математических представлений умственно отсталых дошкольников с помощью компьютерных технологий»⁶, L.E. Tommening «Формирование готовности к обучению математике детей с общим недоразвитием речи»⁷ kabi tadqiqotlari ana shular jumlasidandir.

Ammo sanab o‘tilgan tadqiqotlar va ma’lum ishlanmalarning mavjudligiga qaramasdan kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarga matematika fanini o‘rgatishda korreksion-rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanishni tashkil qilish masalasi maxsus o‘rganilmagan

² Денисова Ирина Александровна. Дифференцированный подход в формировании произносительной стороны речи учащихся с нарушениями слуха младшего школьного возраста: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук: 13.00.03 / Денисова Ирина Александровна; [Место защиты: Ленинградском государственном университете имени А.С. Пушкина]. - Санкт-Петербург, 2012. - 23 с.

³ Силантьева, Светлана Николаевна. Формирование структурно-семантического анализа предложений у старших дошкольников с общим недоразвитием речи: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.03 / Силантьева Светлана Николаевна; [Место защиты: Моск. пед. гос. ун-т]. - Москва, 2011. - 167 с.: ил. РГБ ОД, 61 12-13/15

⁴ Грачева Инна Александровна. Коррекционно - развивающее пространство как оптимальное условие адаптации младших подростков с нарушениями речи при интегрированном обучении: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.03 / Грачева Инна Александровна; [Место защиты: Моск. гос. гуманитар. ун-т им. М.А. Шолохова]. - Москва, 2009. - 183 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-13/1539

⁵ Емельянова Ирина Алексеевна. Педагогическая технология формирования коммуникативных умений и навыков у младших школьников с нарушением интеллекта: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.03 / Емельянова Ирина Алексеевна; [Место защиты: Ур. гос. пед. ун-т]. - Екатеринбург, 2009. - 274 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-13/1542

⁶ Клыпутенко Виктория Владимировна. Формирование математических представлений умственно отсталых дошкольников с помощью компьютерных технологий: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.03 / Клыпутенко Виктория Владимировна; [Место защиты: Моск. пед. гос. ун-т]. - Москва, 2009. - 219 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-13/2182

⁷ Томме Людмила Евгеньевна. Формирование готовности к обучению математике детей с общим недоразвитием речи: диссертация ... кандидата педагогических наук: 13.00.03 / Томме Людмила Евгеньевна; [Место защиты: Ин-т коррекц. педагогики Рос. акад. образования]. - Москва, 2009. - 180 с.: ил. РГБ ОД, 61 09-13/759

bo‘lib, uni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Ta’kidlangan o‘rinlarga ko‘ra, Toshkent shahri Olmazor tumanidagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatida olib borilgan uzoq yillik pedagogik ish tajribasi asosida kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarga matematika fanini korreksion-rivojlan-tiruvchi pedagogika asosidagi interfaol va o‘yin usullarida o‘qitish bo‘yicha dars ishlanmalarini ishlab chiqdik.

O‘ylaymizki, kitobda keltirilgan dars ishlanmalari, nazariy va amaliy xulosalar, tavsiyalar soha mutaxassislari va muxlislari uchun foydali bo‘lib, ularning mustaqil pedagogik faoliyatini tashkil qilishda ko‘mak beradi va matematika fanini o‘qitish jarayonini interfaol metodlar bilan takomillashtirish ishiga xizmat qiladi.

1. KAR VA ZAIF ESHITUVCHI O'QUVCHILARGA MATEMATIKA FANINI O'RGATISHDA KORREKSION- RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY ZARURIYATI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

O'zbekistonda jamiyat hayotini qayta qurish jarayonida juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etgan yo'nalishlardan biri bu – ta'lim sohasidagi islohotlar, xususan «Ta'lim to'g'risida»gi⁸ qonunning, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning⁹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004–2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi 2004-yil 21-maydagi PF-3431 Farmoni¹⁰ kabi hujjatlarning qabul qilinishi, ta'lim mazmunining milliy istiqlol va o'zlikni anglash asosida qayta qurilishi, ta'limning shakl, vosita va usullarining boyitilishi va takomillashuvi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qayta-qayta qayd etishiga ko'ra, ta'lim-tarbiya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktablar, litsey va kollejlari, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalari eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

Binobarin, xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlariga ergashgan holda kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim bo'g'iniga aylantirildi.

Ayniqsa, 2004–2009-yillarda amalga oshirilgan Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida «Elektron ta'lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012-yil 16-apreldagi PQ–1740-son qarori, «Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada

⁸ «Ta'lim to'g'risida»gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining X sessiyasida qabul qilingan. 1992 yil 23 iyulda matbuotda e'lon qilingan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1996 yil. № 9. 342 modda.

⁹ «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonun (1997-yil 29-avgust) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-yil. № 11-12. 295 modda.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida»gi 2004-yil 21-maydagi PF-3431 Farmoni // Xalq so'zi. 2004-yil 22-may.

takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2012-yil 18-maydagi PQ-1761-son qarori singari o'ndan ortiq huquqiy hujjatlar ta'lim rivoji va mamlakat ijtimoiy hayotida tub burilish yasadi.

Mazkur hujjatlarda ta'kidlab o'tilgan barcha vazifalar maxsus maktab ta'limiga ham tegishli bo'lib, bugungi kunda maxsus maktab ta'limi tizimida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etish jarayoni boshlangan. Bu borada maxsus ta'lim maktablarining ham ish faoliyati tubdan isloh qilinmoqda. Muhim bo'lgan talablardan biri maxsus maktablardagi ta'lim jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar bilan boyitish va takomillashtirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 17-fevralda Toshkent shahrida o'tkazilgan «Yuksak bilimli intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferensiyasining ochilishdagi nutqida aytilishicha, «O'tgan yillar mobaynida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish bo'yicha miqyosi va ko'lami ulkan ishlar amalga oshirildi. Qariyb 9,5 ming yoki mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan maktablarning deyarli barchasi yangitdan qurildi, kapital rekonstruksiya qilindi va zamonaviy o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari bilan ta'minlandi. O'quv jarayonini sifat va metodik jihatdan butunlay yangilash bo'yicha ulkan chora-tadbirlar amalga oshirildi»¹¹.

Jamiyatdagi mavjud zamonaviy pedagogik ehtiyojlarni qondirish uchun barcha bosqichdagi o'quv jarayonlarini qayta qura bilish, pedagogik innovatsion qarash, g'oya va fikrlardan xabardor bo'lish, interfaol usullarni bilish va ular maqsadi va ahamiyatini anglash, ularni ijodiy o'zlashtira olish, konkret o'quv jarayoni uchun yangiliklarni yarata bilish, ularning o'quv jarayoniga tatbiq eta olish, o'z faoliyatini aynan innovatsiya asosiga qurish, o'z faoliyatiga nisbatan chuqur reflektiv munosabatni shakllantirish, doimo o'z ustida ishlash, o'quv, o'quv metodik adabiyotlar, qo'llanmalar, vositalar va usullarni o'zi yaratish kabi o'nlab yo'nalishlarda faollik bilan mehnat qilish zarur. Aynan mazkur faoliyat o'qituvchi faoliyatidagi innovatsiya mohiyatini belgilab beradi.

Ya'ni o'qituvchi faoliyati va amaliyotida tub o'zgarishlarga olib keluvchi maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil qila bilish ta'limdagi innovatsiyaga teng keladi.

¹¹ http://uzbekistonovozi.uz/uz/articles/index.php?ELEMENT_ID=2307// O'zbekiston ovozi» gazetasining internet portali, 23.02.201

«Innovatsiya» tushunchasi lotin tilidan («innovato») olingan boʻlib, «yangilanish», «oʻzlashtirish», «qandaydir yangilik kiritish», «yangi gʻoya va qarashlarni hayotga joriy etish» va «yangi samaradorlikni taʼminlash» maʼnolarini anglatadi.

Agar pedagogikadagi innovatsiyaga doir fikrlar umumlashtirilsa, uning mazmuni pedagogik tizim, pedagogik jarayon hamda pedagog faoliyatini yangi gʻoya va qarashlar asosida tashkil qilish, boshqarish va amaliy qilishda yangi mazmundagi mutaxassislarni yetishtirib chiqarishning yangicha tizimi, jarayoni va usul, vosita, metod va yoʻllari majmuidan iborat ekanligi oydinlashadi, ular majmui pedagogik innovatsiyaga toʻgʻri keladi.

Taʼlim tizimidagi innovatsion jarayonlar uch asosiy xususiyat bilan xarakterlanadi. Ular:

- a) innovatsiyani joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy;
- b) psixologik-pedagogik hamda
- d) tashkiliy-boshqaruv shart-sharoitlari va talablaridir.

Umuman olganda, taʼlimdagi innovatsion jarayonlar taʼlim tizimini yangi mazmunda boshqarish va tashkil qilish jarayonlaridir. Umuman olganda esa, taʼlim jarayonini innovatsion boshqarish oʻqituvchi faoliyatini yangi mazmunda qayta qura olish va auditoriyada belgilangan oʻquv jarayonini innovatsion boshqarish va tashkil qila bilishga teng keladi.

Shunga koʻra, korreksion-rivojlantiruvchi pedagogika sohasida ham innovatsion islohotlarni amalga oshirish, innovatsion metodlarni amaliyotga qoʻllashni taʼminlash muhim.

Korreksion-rivojlantiruvchi pedagogikaning oʻziga xosligi, oʻz spetsifikasi mavjud. Bu – oʻquvchining tibbiy, jismoniy va psixologik xususiyatlari majmuasi, ularga mana shu xususiyatlarni nazarga olgan holda dars va taʼlim jarayonini tashkil qilish zarurligi bilan belgilanadi.

Korreksion-rivojlantiruvchi pedagogika va pedagogik faoliyat bu oʻquvchining har tomonlama samarali rivojlanishini taʼminlashga yoʻnaltirilgan faoliyat boʻlib, uning turli sohalardagi layoqatlari va isteʼdodlarini rivojlanishini taʼminlab beradi.

Korreksion-rivojlantiruvchi pedagogika tushunchasi tarkibida turli pedagogik tadbirlar majmuasi anglashiladi, ular asosida salomatlik nuqtayi nazaridan cheklangan oʻquvchilarning taʼlim olish jarayonini, imkoniyatlarini kengaytirish, ular yetishishi qiyin boʻlgan oʻrinlarni yoʻqotish asosiga quriladi, natijada oʻquvchilarning bilim, malaka va koʻnikmalari saviyasi va darajasi toʻldiriladi, rivojlantiriladi va



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/3995> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3995> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3995>